

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

berilmoqda va bosh vazifamiz o‘quvchilarni yanada shijoatli, vatanparvarlik ruhida tarbiyalashimizdir. Biz muallimlar buni uchun ta‘lim tizimini o‘rgangan holda uning yutuq va kamchiliklarni o‘rganib, yangi milliy o‘quv dasturi yaratishingiz kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Saidova, G. E. (2023). BOSHLANG ‘ICH SINFI O ‘QUVCHILARNING O ‘QUV FAOLIYATINI BAHOLASHDA ZAMONAVIY LOYIHALARDAN FOYDALANISH. Conferencea, 33-37.
- 2.Ergashovna, S. G. (2023, February). BOSHLANG‘ICH SINFI TARBIYA DARSLARIDA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV. In E Conference Zone (pp. 1-4).
- 3.Ergashovna, S. G., & Choriyevna, A. N. (2023). Use of Advanced Foreign Experiences in Increasing the Efficiency of Classroom and Out-of-Class Lessons. Texas Journal of Medical Science, 16, 68-70.
- 4.Саидова, Г., & Каххорова, А. (2022). Xalq og ‘zaki ijodi orqali o ‘quvchilarda ma‘naviy tarbiyani shakllantirish. Общество и инновации, 3(4/S), 314-317.
- 5.Ergashovna, S. G. (2024). General Methodology of Working on Hadiths in Primary Class Education Lessons. International Journal of Formal Education, 3(6), 132-135.
- 6.Ergashovna, S. G. (2024). EDUCATION OF ELEMENTARY SCHOOL STUDENTS IN THE SPIRIT OF PATRIOTISM THROUGH EDUCATIONAL CLASSES. Journal of Modern Educational Achievements, 1(1), 2-7.
- 7.Ergashovna, S. G. (2021). Formation Of Concepts About Length In Primary School Students, Developing Length Measuring Skills. European Scholar Journal, 2(4), 109-113.
- 8.Boshlang‘ich sinfi Matematika darsliklari
- 9.Milliy o‘quv dasturi
- 10.vikipediya ma‘lumotlari
11. Lex.uz
- 12.yuz.uz/news/ozbekiston-xalqaro-timss-tadqiqotida-rasman-qatnashishga-kirishdi

DARSLIKLAR VA BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA QO‘LLANAYOTGAN DARSLIKLARINING MOHIYATI

Kamolova Mehriqul Husniddin qizi

*Buxoro davlat pedagogika instituti Maktabgacha va boshlang‘ich ta‘lim fakulteti
Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishining 3-bosqich talabasi*

Darslik-ma‘lum tartibda bayon etadigan va yuqori ma‘naviy-g‘oyaviy, ilmiy uslubiy saviyada yozilgan kitob, o‘quv adabiyotining asosiy va yetakchi turi. Darsliklar 2 asosiy guruhga

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

bo‘linadi: o‘quvchilar uchun darsliklar va talabalar uchun darsliklar. O‘zbekistonda o‘quvchilar uchun mo‘ljallangan darsliklardan umumiy o‘rta ta’lim maktabi, ixtisoslashtirilgan maktab, akademik litsey, kasb-hunar kolleji, maxsus ta’lim maktablari va maxsus internat maktablarning o‘quvchilari; talabalar uchun nashr etilgan darsliklardan oliy o‘quv yurtlari talabalari mustaqil hamda o‘qituvchilar rahbarligida foydalanadilar. Darsliklar muayyan fanga oid asosiy fakt, ilmiy tushuncha, qonun va nazariyalar mazmunini tegishli o‘quv yurtining dasturi hajmida ta’lim vazifalari hamda o‘quvchi (talaba)larga mos tarzda ochib beradi.

Darsliklar ta’lim, tarbiya vazifalarining imkoni bor darajada hal etilishiga, ya’ni bilimning muntazam, mustahkam va ongli o‘zlashtirilishiga, o‘quvchi (talaba)larda fanning muayyan sohasiga qiziqish uyg‘otishga, ularda ilmiy tafakkurning tarkib to-pishiga yordam beradi. Darslikning tili ravon va tushunarli bo‘lishi, o‘quvchilar nutqining o‘sishiga yordam berishi lozim. Darsliklar tarixi qadim zamonlardan boshlanadi. Sharqda, xususan Frot va Dajla daryolari oralig‘ida yashagan qad. shumerlar davrida sopol taxtachalarga bitilgan matnlar miloddan avvalgi 2-ming yillikka oid bo‘lib, ular „qo‘llanma“ va „darsliklar“ vazifasini o‘tagan. Keyinchalik boshqa sharq xalqlarida, ulardan keyin esa qadimgi dunyoda papirus yoki pergamentga bitilgan qo‘lyozma o‘quv kitoblari vujudga kela boshlagan va ular ma’lum bir sohaga, kasbga o‘rgatish uchun asosiy manba vazifasini o‘tagan. Kitob nashr etish ishi yuzaga kelgach, darsliklar hammabop bo‘la boshladi. Pedagogika va psixologiya fanlarining taraqqiyoti bilan darsliklarning mazmuni va metodik tuzilishi tobora mukammallashib bordi. O‘rta Osiyoni Rossiya bosib olgunga qadar bu yerda mavjud bo‘lgan maktab va madrasalardagi ta’lim tarbiyaning asosiy mazmuni islom ta’limotini o‘rgatishdan iborat bo‘lgan va ularda arab, fors, eski turk tillarida yozilgan diniy kitoblar darslik vazifasini o‘tagan. Bu darsliklar Qur’on oyat va suralaridan, boshqa diniy kitoblarning turli qism va parchalaridan iborat bo‘lgan. Maktabxonalarda „Haftiyak“, „Chor kitob“ va b. kitoblar o‘qitilgan. Madrasalarda ham musulmon diniy qoidalari to‘plami — „Avvali ilm“ (fors tilida savol-javob tarzida tuzilgan), arab tili grammatikasiga oid „Bidon“, „Qofiya“ kabi qo‘llanmalardan foydalanilgan. Ba’zi madrasalarda talabalar qad. kitoblarni mustaqil o‘qib o‘rganishi natijasida geografiya, astronomiya, tibbiyot va b. fanlarga oid ayrim ma’lumotlardan xabardor bo‘la borganlar, mumtoz shoirlarning asarlari bilan tanishganlar.

O‘rta Osiyo Rossiya tomonidan bosib olingandan keyin rus metodistlari ta’sirida mahalliy tillarda maktab darsliklari yaratila boshlandi. 19-asrning 70-yillaridan Toshkentda rus va rus-tuzem maktablari uchun ayrim darsliklar nashr etildi. 1875-yil A. A. Terentyevning „Russkaya azbuka dlya shkoly Sredney Azii“ („O‘rta Osiyo maktablari uchun rus alif-bosi“), 1885-yil V. P. Nalivkinning „Azbuka dlya russko-musulmanskix shkoly osedlogo naseleniya Turkestanskogo kraya“ („Turkiston o‘lkasidagi o‘troq aholiga mo‘ljallangan rus-musulmon maktablari uchun alifbo“) darsliklari paydo bo‘ldi. 1887-yil V. P. Nalivkinning „Terma kitob“ nomi bilan o‘zbekcha-tojikcha xrestomatiyasi, 1896-yil uning „Turkiston viloyatining Toshkand shahridagi seminariya degan madrasada o‘qiydurgan terma kitob“ asari nashr qilindi. 1898-yildan S. M.

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

Gramenitskiyning 3 qismdan iborat „Kniga dlya chteniya“ („O‘qish kitobi“) kitobi qo‘llanila boshlandi.

Jadidchilik harakati boshlanishi bilan yozuvchi va shoirlar o‘zlari dars o‘tishlari uchun yangi darslik va qo‘llanmalar yaratishdi. Bu darsliklar maktab o‘quvchilari uchun mo‘ljallangan bo‘lib boshqa darsliklardan farq qilgan. Chunki bu darsliklar o‘zgacha uslubiy vazifani bajaradi va o‘quvchilarning ma‘naviy ongini boyitishga va rivojlantirishga xizmat qilgan. Sababi bu davrga kelib ruslarning tili ommalashadi va asosan rus xalqi darsliklarida ko‘proq e‘tibor berilgan. Xalqni o‘z tili va tarixidan uzoqlashtirishga harakat qilishgan. Sababi mahalliy aholining ongini yuksaltirishmasligi lozim edi.

Millat fidoyilari buni bilishgan, shuning uchun ham yangi qo‘llanma va kitoblar yaratgan, sahna ko‘rinishlari tashkil etilgan. Davrlar o‘tishi bilan darsliklar turlicha dizaynda ishlab chiqarila boshlandi. Hozirda yurtimizda yangi avlod darsliklari asosida fanlar o‘qitilmoqda. Bu darsliklar avvalgilardan ichki va tashqi dizaynlari bilan, mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan matn, misol va masalalar bilan boyitilgan.

Xulosa qilib aytganda ta‘lim tizimida darsliklarning ahamiyati juda muhimdir. Shuning uchun ularning mazmuniga va xalqaro standartlariga javob beradigan holda ishlab chiqarilmoqda, o‘zgartirishlar kiritilmoqda. Bizlar ham hozirgi kundagi va avvalgi darsliklarni o‘rganib tahlil qilishimiz lozim. Chunki kitoblar va mashq daftarchasi bolaning yoshiga mos kelishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Kasimov F.M, Saidova G.E. darslik 2024
2. "Xalq ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi 5712 sonli " qarori.
3. Saidova, G. E. (2021). BOSHLANG‘ICH SINF MATEMATIKA DARSLARIDA O‘QUVCHILARNI MANTIQUIY MASALALAR YECHISHNI O‘RGATISH. Scientific progress, 2(6), 1021-1024.
4. Ergashovna, S. G. (2021). Formation Of Concepts About Length In Primary School Students, Developing Length Measuring Skills. European Scholar Journal, 2(4), 109-113.
5. Saidova, G. (2023). BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA MODULLI TA‘LIM TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING ILMIY-PEDAGOGIK ASOSLARI. ЦЕХТН НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 28(28).
6. Saidova, G. E. (2021). BOSHLANG‘ICH SINF MATEMATIKA DARSLARIDA O‘QUVCHILARNI MANTIQUIY MASALALAR YECHISHNI O‘RGATISH. Scientific progress, 2(6), 1021-1024.

7. Saidova, G. E. (2023). BOSHLANG ‘ICH SINFI O‘QUVCHILARNING O‘QUV FAOLIYATINI BAHOLASHDA ZAMONAVIY LOYIHALARDAN FOYDALANISH. Conferencea, 33-37.

8. Ergashovna, S. G. (2023, February). BOSHLANG‘ICH SINFI TARBIYA DARSLARIDA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV. In E Conference Zone (pp. 1-4).

9. vikipediya ma'lumotlarini

10. kun.uz

UDK: 004.89

**РОЛЬ СРАВНИТЕЛЬНОЙ ЛИНГВИСТИКИ В ПРЕПОДАВАНИИ И
ИЗУЧЕНИИ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА.**

**INGLIZ TILINI O'QITISH VA O'RGANISHDA
QIYOSIY TILSHUNOSLIKNING O'RNI.**

**THE ROLE OF COMPARATIVE LINGUISTICS
IN TEACHING AND LEARNING ENGLISH.**

Рахматова Малика Учкуневна,

Студентка Навоийского Государственного Университета.

ORCID: [0009-0003-5039-2188](https://orcid.org/0009-0003-5039-2188)

Email: kahramonovamalika29@gmail.com

Tel: +998 93 573 00 39

Наджмиддинова М.Н.

*Научный руководитель: Преподавательница кафедры
«Прикладных наук английского языка»*

***Аннотация.** В статье подчёркивается роль сравнительной лингвистики в ходе реализации учебного курса и обучения английского языка. Рассмотрены особенности основных фонологических, грамматических и лексических расхождений между английским и русским языками, установлены распространённые затруднения русскоговорящих учащихся при освоении английского языка. Продемонстрировано, что применения материалов сравнительной лингвистики позволяет оптимизировать результативность обучения, упростить преодоление интерференции родного языка и содействует формированию языковой компетенции учащихся. Подчёркивается необходимость дальнейшей интеграции сравнительно-лингвистических подходов в информационно-образовательные платформы.*